

BIRINCHI RENESSAS DAVRIDA MARKAZIY OSIYOLIK ALLOMALAR

Murodov Asqar O'tkirovich

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti 3-kurs talabasi

Annotasiya: *Mazkur maqolada IX-XII asrlar oralig'ida Markaziy Osiyoda yuz bergan Birinchi Renessans – Sharq uyg'onish davri jarayonida shakllangan ilmiy va madaniy yuksalish masalalari keng tahlil qilingan. Unda bu davrning ijtimoiy-siyosiy omillari, ilmiy tafakkur shakllanishiga ta'sir etgan shart – sharoitlar hamda Markaziy Osiyolik allomalar – Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oni, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali Ibn Sino ilmiy merosining tarixiy ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotda tarixiy manbalar, zamonaviy ilmiy adabiyotlar va tahliliy uslublar asosida Birinchi Renessans davrining jahon sivilizatsiyasi rivojida o'rni aniqlanadi.*

Kalit so'zlar: *Birinchi Renessans, Markaziy Osiyo, uyg'onish davri, ilm-fan, madaniyat, Forobiy, ilmiy meros, tafakkur.*

KIRISH

Insoniyat tarixida ayrim davrlar borki, ular butun tafakkur va madaniyat rivojida burulish yasagan. Shunday davrlardan biri – IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda yuz bergan Birinchi Renessans, ya'ni Sharq uyg'onish davridir. Bu davrda ilm-fan, falsafa, tibbiyot, astronomiya, matematika, adabiyot va san'at sohalarida yuksak darajadagi yutuqlar qo'lga kiritildi. Ayniqsa bu davrda shakllangan ilmiy maktablar, tafakkur uslublari va aqlni ustuvor deb bilgan dunyoqarash keyinchalik Yevropa uyg'onishiga asos bo'ldi.

Birinchi Renessansning shakllanishiga bir necha omillar sabab bo'lgan. Avvalo, Somoniylar, Tohiriylar, G'aznaviylar, Xorazmshohlar va boshqa mahalliy sulolalarning siyosiy mustaqillik uchun kurashi Markaziy Osiyoda nisbiy barqarorlik va iqtisodiy yuksalish davrini boshlab berdi. Bu sharoitda ilm va madaniyatga bo'lgan e'tibor ortdi, hukumdorlar ilm ahlini qo'llab – quvvatladilar. Madarasalar, kutubxonalar va ilmiy markazlar faoliyati kengaydi. Buxoro, Marv, Samarqand, Xiva, Gurganch, Balx va Farg'ona singari shaharlar butun musulmon sharqining ilm markazlariga aylandi.

Aynan shu muhitda Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Ahmad Al Farg'oni, Muhammad Al - Xorazmiy kabi ulug' allomalar voyaga yetdilar. Ularning ijodi nafaqat Sharq, balki butun insoniyat tafakkurining rivojida chuqur iz qoldirdi. Shu bois, Birinchi Renessans davri – inson tafakkurining eng yorqin bosqichlaridan biri hisoblanadi.

METODIKA. Mazkur tadqiqot tarixiy manbalar, ilmiy tahlil va qiyosiy metodlar asosida olib borildi. Asosiy metodlar quydagilardan iborat;

1. Tarixiy – tahliliy yondashuv – davrning siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillarini o'rganish orqali uyg'onish sabablari tahlil qilinadi.

2. Manbashunoslik yondashuvi – Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Al Farg'oniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Muhammad Al Xorazmiy asarlari, ularning shogirtlari tomonidan yozilgan qo'lyozmalar hamda zamonaviy tadqiqotchilar ishlari o'rganildi.

3. Qiyosiy tahlil – Markaziy Osiyo uyg'onish davri Yevropa Renessanisi bilan ilmiy va falsafiy jihatdan qiyoslandi.

4. Sistemali yondashuv – ilmiy fikr rivojlanishning siyosat, madaniyat va ta'lim bilan o'zaro aloqasi ochib berildi.

Manba sifatida Al-Xorazmiyning "Al-jabr val muqobala", Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Beruniyning "Hindiston" va "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarlari ahlil qilindi. Shuningdek, zamonaviy tarixshunoslarning ilmiy ishlari tayanilma manba sifatida foydalanildi.

Natijalar

1. Birinchi Renessansning shakllanish omillari

IX asrda musulmon sharqida siyosiy mustaqillik harakatlari kuchaydi. Somoniylar davlatining barqarorlashuvi natijasida Buxoro, Samarqand, va Xorazmda Ilmiy hayot jonlandi. Hukumdorlar olimlarga homiylik qilar, ularning asarlarini yozdirar, tarjimalarini esa qo'llab – quvvatlardilar. Shu davrda "Bayt ul- hikma", [Donolik uyi] singari ilmiy markazlar faoliyat yuritib, qadimgi yunon, hind, fors va arab manbalarining tarjima maktablari tashkil etildi. Bu uyg'onish ilm-fan, falsafa va tibbiyotda yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

2. Muhammad al – Xorazmiy – matematika tafakkurining otasi

Muhammad al – Xorazmiy [783 – 850] – Birinchi Renessans davrining eng yirik matematiklaridan biri. U algebra faniga asos solib, "Al – jabr val muqobala" nomli asarini yozdi.uning asari orqali "algebra" atamasi ilmiy muomalaga kirdi. Xorazmiy sonlarni ifodalashda hind raqam tizimidan foydalangan. Uni mukammalashtirib, zamonaviy raqam tizimiga asos soldi. Uning "algoritmi" tushunchasi bugungi axborot texnologiyalari asosida ham yotadi. Xorazmiy astronomiy va geografiya sohalarida ham yirik ilmiy kashfiyotlar qilgan.

3. Ahmad al – Farg'oniy – koinot sirlarini ochgan olim

Ahmad al – Farg'oniy [IX asr] astronomiy va geografiya sohalariga ulkan hissa qo'shgan alloma bo'lib, "Samoviy harakatlar va yulduzlar ilmi haqida" nomli asar yozgan. U yerning radiusi va ekvator uzunlini aniqlab, koinot tuzilishini ilmiy asosda tahlil qilgan. Uning ilmiy ishlari Yevropada lotin tilida tarjima qilinib, Kopernik, Galiley kabi olimlar faoliyatiga tasir ko'rsatgan. Farg'oniy ilmni kuzatuv va matematik hisob kitoblarga asoslash g'oyasini ilgari surgan.

4. Abu Nasr Forobiy – falsafiy tafakkur poydevori

Abu Nasr Forobiy [870-950] Sharq falsafasining buyuk vakili sifatida "Muallim assoniy" nomi bilan mashur bo'lgan. U Aristotel falsafasini chuqur o'rganib, uni musulmon dunyoqarashiga moslab talqin qilingan. Uning "Fozil odamlar odamlar shahri", "Ilmlarning kelib chiqishi", "Baxt - saodat haqida" asarlari inson tafakkuri, axloq va jamiyat masalalari chuqur tahlil qilinadi. Forobiya ko'ra , insonning maqsadi baxtga

erishishdir, buning uchun esa ilm, axloq va adolat birligi zarur. Uning falsafiy qarashlari keyinchalik Ibn Sino va Beruniy tafakkuri kuchli ta'sir ko'rsatgan.

5. Abu Rayhon Beruniy – ensiklopedik bilim sohibi

Abu Rayhon Beruniy [973-1048] o'z davrining eng bilimdon olimlaridan bo'lib, ilmning ko'plab sohalarida tadqiqotlar olib borgan. U "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Mineralogiya", "Geodeziya" kabi asarlarida tarix, geografiya, geologiya, etnografiya, matematika, farmatsiya, astronomiya va dinshunoslik masalalarini batafsil yoritib bergan. Abu Rayhon Beruniy ilmni tajriba va kuzatuvga asoslash kerakligini ta'kidlagan. U o'z tadqiqotlarida millatlararo do'stlik, bag'rikenglik va ilmiy halollik tamoyillarini ilgari surgan.

6. Abu Ali Ibn Sino – tibbiyot va falsafaning yulduzi

Abu Ali Ibn Sino [980 – 1037] – Sharqning eng buyuk mutafakkiri, tabib va faylasufidir. Abu Ali Ibn Sino 450 dan ortiq asar yozgan. Ularning eng mashuri – "Al – Qonun fi't – tibt" ["Tib qonunlari"] bo'lib, u XVII – asrgacha Yevropa tibbiyotining asosiy qo'llanmasi bo'lib kelgan. Abu Ali Ibn Sino anatomiya, fiziologiya, farmatsiya, psixologiya va axloq sohalarini bir butunlikda o'rgangan. U insonni tabiatni eng mukammal mavjudoti deb bilgan. Inson salomatligini, jismoniy, ruhiy va ijtimoiy omillar birligi orqali tushuntirgan.

7. Ilmiy muhit va ta'lim tizimi

Birinchi Renessans davrida ta'lim va ilmiy izlanishlar keng tarmoqli tizmga ega edi. Madarasalar, kutubxonalar, rasadxonalar, tarjima markazlari, ilmiy hayot markaziga aylandi. Ilm faqat diniy fanlar bilan cheklanib qolmadi, balki tabiiy va aniq fanlar ham o'rganildi. Buxoro, Xorazm va Gurganch kabi shaharlarda olimlar o'rtasida ilmiy muloqotlar o'tkazilib, ilmiy maktablar shakllandi. Bu maktablar orqali ilm – fanning izchiligi ta'minlandi.

MUHOKAMA.

Birinchi Renessans davri Markaziy Osiyoda ilm – fanning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu davrda ilm diniy qarashlardan ozod bo'lib, mustaqil fikr, tajriba va mantiqqa tayandi. Allomalar ilmni inson hayotining eng oliy qadriyati sifatida ko'rdilar. Ularning asarlari keyinchalik Yevropaning Uyg'onish davriga kuchli turtki bo'ldi. Xususan, Ibn Sino va Forobiyning asarlari lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropa falsafasi va tibbiyotining poydevoriga aylandi.

Beruniy va Xorazmiy kiritgan matematik va astranomik kashfiyotlar zamonaviy limning asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Farg'oniyni yerni o'lchovlari asosida hozirgi koinot modli shakllangan. Bu davr merosi hozir ham O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Tojikiston va butun sharq xalqlarining faxr manbaidir.

XULOSA

1. Birinchi Renessans Markaziy Osiyoda ilm – fanning va madaniyatning eng yuksak bosqichini tashkil etgan.

2. Bu davr allomalari – Muhammad al – Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy – jahon tafakkurining ustunlaridir.

3. Ularning ilmiy merosi Yevropa Uyg'onish davrining ilmiy asoslarini shakllantirgan.

4. Ilmni erkinlik, bag'rikenglik va tarriba asosida rivojlantirish g'oyasi bu davrda shakllangan.

5. Bugungi kunda Birinchi Renessans merosi Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy va ilmiy o'zligini belgilab turuvchi eng muhim manba bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Toshkent; Fan 1968.
2. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. Toshkent; Abu Ali Ibn Sino nashryoti, 1980.
3. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent; Yangi asr avlodi, 2005.
5. Muhammad al – Xorazmiy. Al – jabr val muqobala. Qohira, 1947.
6. Karimov N. Markaziy Osiyo allomalari merosi. Samarqand; Registon, 2021.
7. Yo'ldoshev A. Sharq Uyg'onish davri va ilm – fan taraqqiyoti. Toshkent; O'zbekiston, 2019.
8. Boltayev M. Forobiy falsafasi va zamonaviy tafakkur. Buxoro, 2018.
9. Ahmedov A. Ibn Sino fenomeni. Toshkent; O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020.
10. Salayev Sh. Birinchi Renessans va uning zamonaviy talqini. Toshkent; Fan va texnologiya, 2023.